Употребление падежных окончаний на уроках русского языка	1947
Адилова Солияхон	
STEAM va raqamli ta'lim texnologiyalari asosida alfa avlod o'quvchilarida kreativ tafakkurni shakllantirishning pedagogik asoslari.....	1951
Boltayeva Go'zal Komilovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida olib boriladigan mashg'ulotlarda zamonaviy ta'lim texnologiyalariga qo'yiladigan didaktik talablar	1954
Mansurova Lobar Luqmon qizi	
Translation Techniques as an Integral Part of Foreign Language Teaching and Learning: Benefits and Potential Issues	1958
Yusupova Nargiza Abdulxafizovna	
Использование интерактивных методов обучения русскому языку в медицинском вузе.....	1963
Бекмуратова Умида Аманбаевна	
Nogironligi bo'lgan bolalarda adaptiv jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining sog'liqni saqlashdagi o'rni.....	1967
Namozova Nargiza Husniddin qizi	
The Importance of the Theoretical Basis in Educating Preschool Children in the Spirit of National Education Within the Family.....	1971
Rakhmonova Diyora Utkir's daughter	
Kurash mashg'ulotlarida sportchilarning funksional tayyorgarligini oshirishda individual yondashuvning ilmiy asoslari.....	1976
Nurullayev Abduxoliq Qaxxorovich	
Voleybol mashg'ulotlarida funksional tayyorgarlikni oshirishda individual yondashuvning ilmiy asoslari ...	1980
Davulov Ozodbek Qalandarovich	
18–21 yoshdagi talaba futbolchilarni kompleks tayyorlashning nazariy va uslubiy jihatlar.....	1984
Djemilov Temur Rasimovich	
Oilaviy nizolarning bolalar psixikasiga ta'siri.....	1989
Tulyaganova Dilnoza Ravshanbekovna	
Boshlang'ich maktab yoshidagi (6–8 yosh) chap qo'li dominant bo'lgan bolalarning psixologik rivojlanishi va xususiyatlari	1993
Usmanova Sevara Akmalovna	
Matematika fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalar orqali darsni qiziqarli va samarali qilish usullari ...	1996
Abdullayev G'ayratjon Mutalipovich	
Entropiya o'lchovlarining nazariy asoslari: Shannon, Reyni va Tsallis entropiyasi taqqoslamasi.....	2001
Ovxunov Iqboljon Abdunabiyeovich, Abdurashidov Saydullo Xayrullo o'g'li	
Sun'iy intellekt vositalari asosida kiberijtimoiylashuv samaradorligini oshirishning pedagogik sharoitlari va monitoring mexanizmlari.....	2007
Istamova Dilnoza Norboyevna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida kompetensiyaviy yondashuvga tayanib ta'lim mazmunini boshqarish	2012
Turaxujayeva Madina Norpulatovna	
Para armrestlingchi talabalarni musobaqa oldi texnik tayyorgarligini takomillashtirishda kuch sifatining o'rni	2015
Karimov Faxriddin Xurramovich	
Yengil atletika sportchilarida yadro itqitish harakati biomexanik ko'rsatkichlarining texnik samaradorlikka ta'siri	2019
Djabbarov Axror Islomovich	
Tinchlik madaniyati konsepsiyasining evolyusiyasi: klassik va zamonaviy falsafa	2023
Abdumalikov Ilimjon Abduxamjonovich	
Talabalarning muammoga asoslangan topshiriqlar orqali kognitiv mustaqilligini rivojlantirish: mohiyat va mazmun	2028
Abduvaliyev Nurillo Abdujalilovich	
Oliy ta'lim muassasasi pedagoglari innovatsion faoliyatining ijtimoiy psixologik xususiyatlari	2032
Almardanova Salomat Bobonazarovna	

Kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish zarurati	2035
Ashirov Abdurashid Ravshanovich	
Pedagogik ta'lim klasteri tizimi asosida maktab laboratoriya innovatsion loyihasini amalga oshirishning o'ziga xosligi	2040
Azimova Odinaxon Abduqodir qizi	
Talabalarda algoritmik kompetentlikni rivojlantirishning sun'iy intellekt va Big Data Analytics asosida o'quv faoliyatini real vaqt rejimida kuzatuvchi va boshqaruvchi konseptual modelni takomillashtirish.....	2043
Kayumova Nazokat Rashitovna	
Uzluksiz ta'lim tizimida texnologiya fanini o'qitish samaradorligini oshirishning metodik asoslari	2049
Kurbanov Baxrom	
Ingliz tilida o'qitish vositasi sifatida monologlardan foydalanishning muvaffaqiyatli strategiyalari	2053
Madaminova Nilufar Madrasulovna	
Raqamli texnologiyalar davrida o'quvchilarning psixologik xavfsizligini ta'minlash muammolari	2056
Mahmudov Dilmurod Rahmatjonovich	
Gamifikatsiya va STEAM texnologiyalarini joriy etish orqali boshlang'ich ta'limda inklyuziya va teng imkoniyatlarni ta'minlash	2059
Mamadjanova Diloromxon Baxtiyor qizi	
Talabalarining tadqiqot faoliyatini rivojlantirishda raqamli kompetensiyalarning roli.....	2064
Mamarasulova Zulayho Abdullayevna, Toshmatov Sardorbek Shahobiddinovich	
Maktab yoshidagi o'quvchilarda suzish mashg'ulotlari orqali jismoniy rivojlanish va funksional tayyorgarlik ko'rsatkichlarini oshirish metodikasi.....	2067
Mengliqulov Xayrullo Aliqulovich	
O'quv jarayonida "Data Science" elementlarini integratsiyalashning didaktik imkoniyatlari	2072
Mo'minova Dilnavoz Komilovna	
Muloqot kompetensiyasining pedagogik-psixologik mazmuni va rivojlanish omillari.....	2077
Narbayeva Malohat Xudayberdiyevna	
O'g'il va qiz bolalarda gender tasavvurlarning shakllanishida ota-onaning liderlik maqomining roli.....	2080
Odina Otajonova	
Yarimo'tkazgichlar fizikasi fanini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning ilmiy asoslari	2084
Oromiddinov Sardorbek Botirovich	
Yangi O'zbekistonda ta'limni rivojlantirishda media vositalardan foydalanish metodlari	2089
Qobilov Vohidjon Asliddin o'g'li	
Inklyuziv ta'limda pedagoglarni tayyorlashning zamonaviy tendensiyalari va innovatsion yondashuvlar ...	2092
Qodirova Feruza Usmanovna	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida o'yinli texnologiyalardan unumli foydalanishning roli.....	2095
Sobirova Bonu Matkarimovna	
Kichik yoshli bolalarning olamni idrok etishlarida oila tarbiyasining ahamiyati	2099
Sobirova Fotimaxon Baxodir qizi, G'aniyeva Shodiya Azizovna	
Talabalarining tadqiqot faoliyatini rivojlantirishda raqamli kompetensiyalarning roli.....	2102
Mamarasulova Zulayho Abdullayevna, Toshmatov Sardorbek Shahobiddinovich	
Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishning didaktik tizimi	2105
Ulug'berdiyeva Dilbar Qarshibekovna	
Kurashchi qizlarning texnik harakatlarining kinematik va kinetik modellashtirish	2109
Xomudjonova Feruza Komiljon qizi	
Lingvokulturologiya va kommunikativ yondashuv integratsiyasi asosida talabalarda ijtimoiy kompetensiyani rivojlantirish.....	2114
Y. T. Umarova	
Bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik faoliyatda kasbiy barqarorligini ta'minlovchi psixologik omillar	2118
Yakubova Manzura Abduraxmonovna	
Integratsiyalashgan darslar orqali talabalarining kreativ salohiyatini rivojlantirish	2121
Yaxyayeva Umida Sharifovna	
Tibbiyot oliy ta'limida "O'zbekiston tarixi" fanining amaliy komponentini kuchaytirish: klinik-ijtimoiy kontekst orqali o'qitish modeli	2125
Yulchiyeva Gulnozaxon Shuxratbek qizi	
Radiatsion fonning inson hayot faoliyatiga ta'siri mavzusini o'rganishning pedagogik ahamiyati	2130
Sodiqov Murod Naimovich	



Talabalarning jismoniy tayyorgarligini oshirishda zamonaviy jismoniy tarbiya metodlarining samaradorligi	2134
Tashpulatov Farxad Alisherovich	
“Arba’in” asarida qit’alarning vazniy xususiyatlari.....	2140
Eshniyazova Maysara Beknazarovna	
Guruhiy loyihalar orqali bolalarda hamkorlik va muloqot ko’nikmalarini tarbiyalash.....	2145
Negmatova Sanobar Qarshiboyevna	
Sport takomillashuv gurugidagi futbolchilarni o’yinga yo’naltirilgan mashg’ulotlar orqali musobaqaga tayyorgarlikni takomillashtirish	2149
Mamatramov Anvar Chorshanbiyevich	
Oliy ta’lim raqobatbardoshligining ta’lim sifatini oshirishdagi roli	2155
Nishonov Dilshod Shamsidinovich	
Sharq donoligi va zamonaviy ta’lim uyg’unligi	2162
Djurakulova Adolat Xolmuratovna	
The Role of Artificial Intelligence in Teaching English as a Foreign Language	2165
Babayeva Komila Rishatovna	
Zaif eshituvchi bolalarga tasviriy san’atni o’rgatishning metodik asoslari (miniatyura misolida).....	2169
Buharbayev Muxtar Yusupovich	
Bo’lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarining axloqiy va estetik madaniyatini takomillashtirish: maxsus yondashuvlar	2172
Do’schanova Nafosat Norimonovna	
Boshlang’ich sinf o’quvchilarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyalari	2176
Fayzullayeva Feruza Raxmatovna	
Bo’lajak o’qituvchilarda kommunikativ madaniyatni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari	2179
Izbosarova Zuxro Anatoliy qizi	
Dialekt va adabiy til: o’zaro munosabat.....	2183
Jumanazarova Guljahon	
Maktabgacha ta’lim yo’nalishi talabalariga kommunikativ kompetensiyalarni o’rgatishda interaktiv ta’lim texnologiyalar.....	2187
Kimsanboyeva Ruxsoraxon Ziyodbek qizi	
Pedagogik nizolarni hal etishda bo’lajak o’qituvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari	2190
Norjon Jamilova Abduxoliq qizi	
Abu Nasr Farobiy asarlari asosida talabalarni boshqaruv madaniyatini rivojlantirish.....	2194
Shamsiyeva M. R.	
O’smirlarda affiliatsiya motivini shakllantirishning pedagogik-psixologik determinantlari	2196
Tojiboyeva Gulxumor Raxmanjanovna, Saidova Maftuna Xakim qizi	
Преподаватель - русист в современной национальной школе: личный опыт и методические находки	2200
Хамидова Гулноза Турсунбаевна (Турсунбой кизи)	
Цифровизация в дошкольном образовании: механизмы управления для повышения качества	2204
Иногамова Д. О.	
Bolalar serebral falajida bolalarning pedagogik, tibbiy va ijtimoiy reabilitatsiya kompleksida – logopedik korreksiya.....	2210
Xusniddinova Barno Xodjiakbarovna	
Maktab ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish maqsadlari va chora-tadbirlari	2214
Ma’rifat Abdullayeva	
Tarbiyasi qiyin o’smirlar bilan ishlashda xatti-harakatlarning buzilishi va xarakter nuqsonlarining oldini olish hamda tuzatishning ilmiy asoslari.....	2218
Mamayusupova Iroda Xamidovna	
Maktabgacha yoshdagi duduqlanuvchi bolalarda nutqni tekislashda multimodal ta’lim texnologiyalarining o’rni	2224
Xodjabekova Surayyo Abduganiyevna	
Maktabgacha ta’lim tashkilotida eko-art loyihalari	2229
Mamatova Xusnora Eshquvatovna	
Влияние искусственного интеллекта на развитие личности детей старшего возраста	2232
Матчанова Камила Фарход кизи	

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin orqali ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish.....	2237
Nazarova Asila Mamarasulovna	
The Concept of Oral Speech Skills and Age- and Ability-Related Characteristics of School Students (Grades 5–6).....	2241
Rustamova Khurshida Yusupovna	
Akmeologik yondashuv asosida pedagogika fanini transformatsiya qilishda innovatsion texnologiyalarning o'rni.....	2245
Xusayinova Go'zal Abdurasulovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi.....	2249
Qo'chqarova Mahmuda Adhmovna	
Facilitatsion yondashuv asosida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish	2252
Xoshimova Gulnoza Lukmonovna, Abduraimova Nilufar Baxtiyorjon qizi	
Raqamli ta'lim platformalaridan foydalanib maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatish	2255
Qayimova Nargiza Rahmatqul qizi	
Talabalarda korrupsiyaga nisbatan muhosasiz madaniyatni shakllantirishning pedagogik mexanizmlari ...	2259
Axmedova Dilnora Kobiljonovna	
Bo'lajak o'qituvchilarni professional nutq madaniyati bo'yicha tayyorlash innovatsiyalari	2262
Ismoilov Temurbek Islomovich	
Bo'lajak o'qituvchilarda badiiy tafakkurning rivojlanish dinamikasiga ta'sir etuvchi omillar	2266
Shaxobitdinov Xayotbek Hakimjon o'g'li	
Lexicon Expansion Model for ELF Learners: a Cognitive, Pedagogical, and Usage-Based Approach.....	2271
Komola Khikmatullaevna Usmanova	
Ta'limni fundamentallashtirish sharoitlarida axborot xavfsizligi texnologiyalarini o'qitish usullari va o'quv materiallari	2275
Boymanov Jasur Isroil o'g'li	
O'quvchilarda ta'lim jarayonida kimyoviy modellardan foydalanish tajribasi	2279
Jobborov Farxod Bo'riyevich	
Fanlararo aloqadorlikdagi masalalarni dasturiy ta'minot vositasida STEAM ta'lim texnologiyasini qo'llash orqali yechishga o'rgatish metodikasi	2282
Normurodov Sharofiddin Muxiddinovich	
Boshlang'ich sinf tabiiy fan darslarida STEAM asosida tanqidiy fikrlashni shakllantirishni tatbiq etishning usul, vosita va metodlari	2286
Saidova Mohinur Jonpo'latovna, Shavkatova Jasmina Jamshid qizi	
Ta'limda raqamli darsliklarning o'rni va ahamiyati ("Dasturlash" fani misolida)	2291
Tursunov Mirolim Ahmadovich	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagog-tarbiyachi faoliyatiga kreativ yondashuv.....	2296
Z. S. Muxtorova	

BOSHLANG'ICH SINFLAR TABIIY FAN DARSLARIDA STEAM ASOSIDA TANQIDIY FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISHNI TATBIQ ETISHNING USUL, VOSITA VA METODLARI

Saidova Mohinur Jonpo'latovna

BuxDPI, Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor,

Shavkatova Jasmina Jamshid qizi

Ta'lim tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang'ich ta'lim)
yo'nalishi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf tabiiy fanlar darslarida STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) yondashuvi asosida o'quvchilarda tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini shakllantirish masalalari nazariy jihatdan tahlil qilinadi. STEAM ta'limining mazmun-mohiyati, uning boshlang'ich ta'limdagi ahamiyati, tanqidiy fikrlash tushunchasi hamda uning tarkibiy komponentlari yoritiladi. Shuningdek, STEAM yondashuvi asosida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda qo'llaniladigan usul, vosita va metodlar ilmiy-pedagogik adabiyotlar asosida tizimlashtiriladi.

Kalit so'zlar: STEAM ta'limi, tanqidiy fikrlash, boshlang'ich ta'lim, tabiiy fanlar, kompetensiya, integratsiya.

Abstract: This article provides a theoretical analysis of the issues related to the development of critical thinking competencies among primary school students in natural science lessons based on the STEAM approach (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics). The essence and content of STEAM education, its significance in primary education, as well as the concept of critical thinking and its structural components are examined. In addition, teaching methods, tools, and instructional strategies used to develop critical thinking through the STEAM approach are systematized on the basis of scientific and pedagogical literature.

Key words: STEAM education, critical thinking, primary education, natural sciences, competence, integration.

Аннотация: В данной статье теоретически анализируются вопросы формирования компетенций критического мышления у учащихся начальных классов на уроках естественных наук на основе STEAM-подхода (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics). Раскрываются сущность и содержание STEAM-образования, его значение в системе начального образования, а также понятие критического мышления и его структурные компоненты. Кроме того, на основе научно-педагогической литературы систематизируются методы, средства и приёмы, применяемые для развития критического мышления в рамках STEAM-подхода.

Ключевые слова: STEAM-образование, критическое мышление, начальное образование, естественные науки, компетенция, интеграция.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri – o'quvchilarda mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishdir. Xususan, boshlang'ich ta'lim bosqichida ushbu kompetensiyalarni rivojlantirish keyingi ta'lim bosqichlari uchun mustahkam poydevor yaratadi. Bugungi kunda xalqaro ta'lim tajribasida STEAM yondashuvi o'quvchilarning bilimlarini amaliy faoliyat bilan bog'lash, muammoli vaziyatlarda fikrlashga o'rgatish hamda fanlararo integratsiyani ta'minlashda samarali mexanizm sifatida e'tirof etilmoqda. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-apreldagi PF-73-son'li qarori "Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" hamda Vazirlar Mahkamasi-

1 <https://lex.uz/uz/docs/-7499721>



ning 2024-yil 12-fevraldagi 87-son²li qarori “Davlat maktabgacha va umumiy oʻrta taʼlim tashkilotlari pedagog kadrlarini kasbiy sertifikatlash boʻyicha davlat xizmatlarini koʻrsatishning maʼmuriy reglamentini tasdiqlash toʻgʻrisida” STEAM yondashuvini joriy etish va oʻquvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishni davlat darajasida qoʻllab-quvvatlashni belgilaydi ^[1, 6-7 b.]. Boshlangʻich sinf tabiiy fan darslari oʻquvchilarda atrof-muhitni kuzatish, tahlil qilish va sabab-oqibat bogʻlanishlarini aniqlash kabi muhim bilish koʻnikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois mazkur fan doirasida STEAM yondashuvi asosida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish masalasi dolzarb ilmiy-pedagogik muammo hisoblanadi ^[4, 6-7 b.].

STEAM taʼlimi – bu fan, texnologiya, muhandislik, sanʼat va matematika yoʻnalishlarini oʻzaro integratsiyalashgan holda oʻqitishga asoslangan zamonaviy pedagogik yondashuvdir. Ushbu yondashuvning asosiy gʻoyasi oʻquvchilarning nazariy bilimlarini real hayotdagi muammolarni hal etish jarayonida qoʻllashga yoʻnaltirishdan iborat. Ilmiy manbalarda STEAM taʼlimining fanlararo integratsiya, amaliy faoliyatga yoʻnaltirilganlik, muammoli va loyiha asosida oʻqitish, ijodkorlik hamda innovatsion fikrlashni qoʻllab-quvvatlash kabi asosiy tamoyillari ajratib koʻrsatiladi. Boshlangʻich taʼlimda STEAM yondashuvi oʻquvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga mos holda soddalashtirilgan, koʻrgazmali va tajribaga asoslangan shaklda tatbiq etiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

STEAM taʼlimi nazariy jihatdan konstruktivizm, pragmatizm va faoliyatga yoʻnaltirilgan taʼlim nazariyalariga tayanadi. Mazkur yondashuvning shakllanishi va rivojlanishida bir qator mashhur pedagog hamda psixolog olimlarning ilmiy qarashlari muhim ahamiyat kasb etadi. Amerikalik faylasuf va pedagog J. Dewey taʼlimni hayot bilan bogʻlash gʻoyasini ilgari surib, oʻquvchi bilimni tayyor holatda emas, balki faoliyat jarayonida egalashi lozimligini taʼkidlagan. Deweyning “learning by doing” konsepsiyasi STEAM taʼlimining muhim nazariy asosi boʻlib, ayniqsa boshlangʻich taʼlimda tajriba, kuzatish va amaliy mashgʻulotlar orqali bilim berish zarurligini asoslaydi. Tabiiy fan darslarida oʻtkaziladigan oddiy tajribalar Dewey qarashlarining amaliy ifodasi hisoblanadi ^[7, 26-27 b.].

Shuningdek, J. Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasiga koʻra, boshlangʻich sinf oʻquvchilari, asosan, aniq amaliy tafakkur bosqichida boʻladi. Ushbu bosqichda bolalar abstrakt tushunchalarga nisbatan real obyektlar va hodisalar orqali bilimni samaraliroq oʻzlashtiradi. STEAM yondashuvi aynan shu nazariyaga mos holda oʻquvchilarga modellashtirish, tajriba oʻtkazish va konstruktorlar bilan ishlash orqali bilimlarni egallash imkonini beradi ^[8, 12-14 b.].

Rus psixologi L.S. Vygotskiyning “yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasi ham STEAM taʼlimining muhim nazariy poydevorlaridan biri hisoblanadi. Vygotskiyga koʻra, bola kattalar yoki tengdoshlari yordamida murakkab vazifalarni bajarish jarayonida rivojlanadi. STEAM asosidagi guruhli ishlar, loyihalar va hamkorlikda bajariladigan tajribalar oʻquvchilarning tanqidiy fikrlashini aynan yaqin rivojlanish zonasi doirasida rivojlantiradi. STEAM taʼlimining fanlararo integratsiyaga asoslanganligi H. Gardnerning koʻp intellektlar nazariyasi bilan hamohangdir. Gardner taʼlim jarayonida oʻquvchilarning turli intellekt turlarini (mantiqiy-matematik, fazoviy, kinestetik, vizual va boshqalar) rivojlantirish zarurligini taʼkidlaydi. Boshlangʻich sinf tabiiy fan darslarida STEAM yondashuvi orqali oʻquvchilarning turli qobiliyatlari bir vaqtning oʻzida rivojlanadi.

Zamonaviy tadqiqotchilar, jumladan Bybee, Yakman va Sanders, STEAM taʼlimini XXI asr kompetensiyalarini shakllantiruvchi integrativ model sifatida baholaydilar. Ularning fikricha, STEAM taʼlimi oʻquvchilarda tanqidiy fikrlash, muammoni hal etish va ijodkorlikni rivojlantiradi. Boshlangʻich taʼlimda ushbu yondashuv oʻquvchilarning fanlarga boʻlgan qiziqishini erta yoshdan shakllantirishga xizmat qiladi ^[10, 223-224 b.].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Nazariy tahlillar shuni koʻrsatadiki, STEAM taʼlimi boshlangʻich sinf tabiiy fan darslarida qoʻllanilganda, klassik pedagogik nazariyalar bilan uzviy bogʻliq holda oʻquvchilarning tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish uchun mustahkam ilmiy asos yaratadi. Tanqidiy fikrlash – bu axborotni tahlil qilish, baholash, solishtirish, asoslangan xulosalar chiqarish hamda qaror qabul qilish jarayonidir. Pedagogik nuqtai nazardan tanqidiy fikrlash oʻquvchining faqat tayyor bilimlarni qabul qilishi bilan emas, balki ularni qayta ishlashi va shaxsiy fikrini shakllantirishi bilan tavsiflanadi.

Boshlangʻich sinf oʻquvchilarida tanqidiy fikrlash quyidagi tarkibiy komponentlar orqali namoyon boʻladi:

- savol berish va muammoni aniqlash;
- kuzatish va taqqoslash; taxmin ilgari surish;
- dalillar asosida xulosa chiqarish;
- oʻz fikrini asoslab berish (1-jadvalga qarang).

2 <https://lex.uz/uz/docs/-6796327>



1-jadval: Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlash quyidagi tarkibiy komponentlari

Tanqidiy fikrlash komponenti	Boshlang'ich sinf kontekstidagi mazmuni	Tabiiy fan darslari bilan bog'lanishi	Rivojlantiriladigan kompetensiyalar
Savol berish va muammoni aniqlash	Hodisani tushunish va unga savol berish orqali izlanish	"Nega qishda daraxt barglari to'kiladi?", "Suv bug'lanishi qanday sodir bo'ladi?"	Analitik fikrlash, muammoni aniqlash, ilmiy savollar berish ko'nikmasi
Kuzatish va taqqoslash	Hodisalarni diqqat bilan kuzatish va farqlarini aniqlash	O'simlik va hayvonlar o'sishi, suv aylanishi, turli sharoitlarni solishtirish	Kuzatish, tafovutlarni aniqlash, tahliliy fikrlash ko'nikmasi
Taxmin ilgari surish	Hodisa natijasi bo'yicha oldindan gipoteza ishlab chiqish	O'simlikning o'sishi, yorug'lik va suv ta'sirini taxmin qilish	Ilmiy tafakkur, xulosaga erishish, kognitiv ko'nikmalar
Dalillar asosida xulosa chiqarish	Kuzatish va tajriba natijalarini tahlil qilib asosli xulosa berish	Suv bug'lanishi, tuproqning namlikni saqlashi, o'simlik o'sishiga oid eksperimentlar	Sabab-oqibat bog'lanishini tushunish, ilmiy xulosa chiqarish, analitik fikrlash
O'z fikrini asoslab berish	Natijalar va tajribalar asosida o'z fikrini izohlash va himoya qilish	Tajriba natijasi, kuzatuv yoki model asosida fikr bildirish	Mustaqil fikrlash, argumentatsiya qilish,

TAHLIL VA NATIJALAR

Boshlang'ich ta'lim jarayonida tanqidiy fikrlashni shakllantirish murakkab intellektual faoliyat emas, balki o'quvchining kundalik tajribasi, kuzatuvlari va oddiy mantiqiy mulohazalari asosida bosqichma-bosqich rivojlantiriladigan jarayon sifatida namoyon bo'ladi. STEAM yondashuvi aynan shu jarayonni tizimli tashkil etish, o'quvchini faol bilish subyekti sifatida shakllantirish imkonini beradi.

Quyida boshlang'ich sinf tabiiy fan darslarida STEAM asosida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi usullar mualliflik yondashuvi asosida nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Hayotiy muammolar asosida fikrlashni faollashtirish usuli. Nazariy jihatdan ushbu usul faoliyatga yo'naltirilgan ta'lim g'oyalari tayangan holda ishlab chiqilgan bo'lib, o'quvchining kundalik hayotda duch keladigan hodisalarni o'rganish orqali fikrlashni faollashtirishni ko'zda tutadi. Boshlang'ich sinf o'quvchisi uchun muammo sun'iy emas, balki u ko'rib, his qilib, kuzata oladigan holat bilan bog'liq bo'lganda samarali bo'ladi.

Amaliyotda tabiiy fan darslarida "Nega qishda daraxt barglari to'kiladi?", "Nima sababdan suv bug'lanadi?" kabi savollar qo'yiladi. O'quvchilar ushbu savollarga javob izlar ekan, mavjud bilimlarini solishtiradi, taxmin bildiradi va oddiy xulosalarga keladi. Bu jarayon tanqidiy fikrlashning boshlang'ich mexanizmlarini shakllantiradi.

Tajriba orqali xulosa chiqarishga yo'naltirilgan usul. Mazkur usul boshlang'ich sinf o'quvchilarining aniq-amaliy tafakkuriga mos bo'lib, bilimning tayyor shaklda emas, balki tajriba natijasi sifatida shakllanishini nazarda tutadi. Tajriba jarayonida o'quvchi faqat kuzatuvchi emas, balki faol ishtirokchiga aylanadi. Amaliy jihatdan suvning bug'lanishi, tuproqning namlikni saqlashi yoki yorug'likning ta'siriga oid sodda tajribalar o'tkaziladi. O'quvchilar "avval qanday edi?", "tajribadan keyin nima o'zgardi?" degan savollar asosida natijani tahlil qiladi. Natijada sabab-oqibat bog'lanishini anglash va asoslangan xulosa chiqarish ko'nikmalari rivojlanadi. Model-lashtirish orqali muammoni tushunish usuli. STEAM yondashuvida model-lashtirish o'quvchilarning murakkab tushunchalarni sodda shaklda anglashiga xizmat qiladi. Nazariy jihatdan ushbu usul vizual va kinestetik o'rganishga asoslanib, o'quvchining fikrini konkret obyekt orqali ifodalash imkonini beradi.

Boshlang'ich sinfda o'quvchilar suv aylanishi, o'simlik tuzilishi yoki ob-havo jarayonlariga oid oddiy modellar yaratadi. Model ustida ishlash jarayonida o'quvchi o'z qarorini asoslaydi, modelni takomillashtirish yo'llarini izlaydi. Bu esa tanqidiy fikrlashning baholash va taklif bildirish komponentlarini shakllantiradi. Fanlararo bog'liqlik asosida tahlil qilish usuli. Ushbu usul STEAM ta'limining integrativ mohiyatidan kelib chiqib, bilimlarni alohida emas, balki o'zaro bog'liq holda o'zlashtirishga yo'naltirilgan. Fanlararo yondashuv o'quvchining hodisaga turli nuqtai nazardan qarashiga imkon yaratadi. Amaliyotda tabiiy fan mavzulari matematika, texnologiya va san'at bilan bog'lanadi. Masalan, o'simlik o'sishini kuzatishda o'quvchi uni o'lchaydi, chizadi va o'sish sharoitini muhokama qiladi. Natijada solishtirish, baholash va xulosa chiqarish jarayoni tabiiy ravishda amalga oshadi. Refleksiya asosida fikrni mustahkamlash usuli. Tanqidiy fikrlashning muhim jihati o'quvchining o'z bilimi va fikrini anglay olishi bilan bog'liq. Shu sababli dars jarayonida refleksiv faoliyatga alohida e'tibor qaratiladi.

Amaliy jihatdan dars yakunida o'quvchilarga "Bugun nimani tushundim?", "Qaysi fikrim o'zgardi?", "Yana nimani bilishni xohlayman?" kabi savollar beriladi. Bu usul o'quvchilarning o'z fikrini baholash va mustaqil xulosa chiqarish ko'nikmalarini mustahkamlaydi (2-jadvalga qarang).



2-jadval: Boshlang'ich sinf o'quvchilarida steam komponentlari

STEAM komponenti	Boshlang'ich sinf darsliklari bilan bog'lanishi	Foydalaniladigan metodlar	Tayyorlanadigan shart-sharoitlar	Shakllantiriladigan kompetensiyalar
S – Science (Fan)	Tabiiy fan darsliklaridagi suv, havo, o'simliklar, hayvonlar mavzulari	Tajriba va kuzatish usuli, muammoli vaziyat yaratish	Oddiy tajriba jihozlari, laboratoriya vositalari, tabiat materiallari	Tanqidiy fikrlash, sabab-oqibat bog'lanishini tushunish, kuzatish ko'nikmalari
T – Technology (Texnologiya)	Boshlang'ich sinf darslarida qo'llaniladigan texnologik vositalar (proyektor, interaktiv doska) bilan ishlash	Loyiha asosida ishlash, modellashtirish	Interaktiv doska, proyektor, oddiy elektron qurilmalar	Muammoni hal qilish, texnologik fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish
E – Engineering (Muhandislik)	Tabiiyot va texnologiya mavzulari, oddiy mexanik qurilmalar	Loyiha va modellashtirish usuli, guruh ishlari	Konstruktorlar, maketlar, materiallar, qurilish vositalari	Ijodkorlik, rejalashtirish, amaliy muammolarni yechish, jamoaviy ish ko'nikmalari
A – Art (San'at)	San'at va tabiiy fan mavzulari bilan integratsiya (rasm, chizma, dizayn)	Chizma va tasvir usuli, fanlararo integratsiya, refleksiya	Rangli qog'oz, bo'yoqlar, rasm vositalari	Ijodkorlik, tasviriy fikrlash, o'z fikrini vizual ifodalash
M – Mathematics (Matematika)	Matematika darsliklari, o'lchash, jadval va diagrammalar	Muammoli vaziyat, tajriba orqali hisoblash, tahlil	O'lchov asboblari, jadval, diagramma vositalari	Analitik fikrlash, masalalarni yechish, ma'lumotlarni tahlil qilish

Umuman olganda, mazkur usullar STEAM yondashuvi asosida ishlab chiqilgan bo'lib, boshlang'ich sinf tabiiy fan darslarida tanqidiy fikrlashni tabiiy, bosqichma-bosqich va tizimli shakllantirish imkonini beradi. Ushbu yondashuv mualliflik talqini asosida yoritilib, amaliyotga joriy etish uchun metodik asos bo'lib xizmat qiladi. Boshlang'ich sinf tabiiy fan darslarida STEAM asosida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda quyidagi vositalar muhim hisoblanadi:

- rangli rasmlar, jadvallar va sxemalar;
- tabiiy materiallar (tosh, barg, suv, qum va boshqalar);
- oddiy tajriba jihozlari;
- konstruktorlar va modellashtirish to'plamlari;
- raqamli ta'lim resurslari va interaktiv taqdimotlar.

Mazkur vositalar o'quvchilarning qiziqishini oshirib, bilimlarni ongli o'zlashtirishga xizmat qiladi.

Boshlang'ich ta'limda STEAM asosida tanqidiy fikrlashni shakllantirishda quyidagi metodlar samarali hisoblanadi:

- integrativ (fanlararo) metod; faol o'qitish metodlari;
- hamkorlikda o'qitish metodlari; refleksiya va rag'batlantirish metodlari.

Mazkur metodlar o'quvchilarni dars jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi va ularning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf tabiiy fanlar darslarida STEAM yondashuvi asosida tanqidiy fikrlashni shakllantirish ta'lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biridir. Mazkur yondashuv o'quvchilarda fanlarga qiziqish uyg'otish, bilimlarni amaliyot bilan bog'lash hamda mustaqil fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish imkonini beradi. Shu bois, STEAM ta'limini boshlang'ich ta'lim jarayoniga tizimli va ilmiy asosda tatbiq etish pedagogik jihatdan dolzarb hisoblanadi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-apreldagi PF-73-sonli qarori. "Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". <https://lex.uz/uz/docs/-7499721>
2. Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 12-fevraldagi 87-sonli qarori "Davlat maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini kasbiy sertifikatlash bo'yicha davlat xizmatlarini ko'rsatishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash to'g'risida". <https://lex.uz/uz/docs/-6796327>
3. Dewey, J. Experience and Education. Macmillan, 1938. 112 b.
4. Piaget, J. The Child's Conception of the World. Routledge, 1929. 134 b.
5. Vygotskiy, L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press, 1978. 159 b.
6. Gardner, H. Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. Basic Books, 1983. 235 b.
7. Bybee, R. W. The BSCS 5E Instructional Model: Origins and Effectiveness. Colorado Springs, CO: BSCS, 2013. 98 b.
8. Yakman, G. STEAM Education: An Overview of Creating a Model of Integrative Education. The Journal of STEM Education, 2008, 22(3), 12–23.
9. Sanders, M. STEM, STEM Education, STEMmania. The Technology Teacher, 2009, 68(4), 20–26.
10. Abdullayeva, G. Boshlang'ich ta'limda STEAM yondashuvi va tanqidiy fikrlash. Tashkent: Pedagogika nashriyoti, 2021. 144 b.
11. Jo'rayev, S. Tabiiy fanlar darslarida loyiha asosida o'qitish metodikasi. Tashkent: O'qituvchi nashriyoti, 2019. 120 b.
12. Sayidahmedov, F. Boshlang'ich sinflarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish usullari. Tashkent: Fan va Texnologiya nashriyoti, 2020. 130 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.